

Teñge shashpaq jeñgelirdin ırımı,
Şekirip jür jelkildesken aydarlar,
Öspirimler jawdıraşqan turımı...

Ósken qız hesh waqıtta sağı sınbay,
Tarangan kún shıǵıstın tawısınday,
Sálem dep appaq tisi ashılǵanda,
Lapızı sıbızǵınıń dawısınday.

Shayır teñew hám epitetlerdi tańlawda stillik jaqtan ayrıqsha sheberlik kórsetip, a'sten esip turg'an jipek samaldın' qıtıqlawın (*Epkin samal qoltıǵınan qıtıqlap*), qızdın' shash o'rimlerin qap-qara bultqa ten'ep, (*Bulttay dönip arqasında burımı*), ilaqtay sekirisip oynap ju'rgen dawıs sestin sıbızǵı sestine qusatıp (*Lapızı sıbızǵınıń dawısınday*) ku'shli emotsionallıq lirizm menen su'wretlep beriwı adamdı eriksiz o'zine tartadı balalardı (*Sekirip jür jelkildesken aydarlar*), Ma'kariya sulıwdın' beti qaytpay o'skenligin (*Ósken qız hesh waqıtta sağı sınbay*), otırıp-turısın tawıs qusqa megzetip (*Tarangan kún shıǵıstın tawısınday*),.

Jetip búgin barlıq arızıw-ármangá,
Kárwan tartıp barar jipek tallarda
Jas jetkinshek áwlad quwanıp atır
Ata tegi márt adamlar bolǵanda
Qaraqalpaqstandı qalay súymesseń?
Múbárek ishqında qalay kúymesseń?

Qosıq qatarları oqıwshılardıǵa epitetler arqalı stillik ekspressivlik kúsh penen tásir etip, onda patriotlıq sezim, tuwılǵan jege degen muhabbatın kúshetiwdige erisken.

Qapıǵa gelle qıstırǵan,
Qaysar salǵan paxsalar
Kóz hásitke bursh turǵan,
Naǵısında gúl janar...

Juwmaqlastırıp aytqanda, kórkem sóz sheberleriniń joqarıdaǵı shıǵarmalarında teñew hám epitetler ekspressivlik-emotsionallıq mánilik qurılısınıń stillik ránbáreńligi, táriyplewde motivatsiyanıń tereń mánilik bay mazmunı menen ajralıp turadı.

Ádebiyatlar

1. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике I-II-III. –Москва: 1958, -С. 73.
2. Бекбергенов А.. Қарақалпақ тилинің стилистикасы. –Нөкіс: 1990, 73-б.
3. Бердимуратов Е. Әдебий тилдің функциональлық стильлерінің раўажланыўы менен қарақалпақ тилинің лексикасының раўажланыўы. –Нөкіс: 1973.
4. Қличев. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. –Тошкент: 1992.
5. Ўзбек тилининг стилистикаси. –Тошкент: 1983, 188-б.

РЕЗЮМЕ. Мақолamızда тилимиздаǵı lingvistik birliklardan biri frazeologizmlarning badiiy tildagi qo'llanilish hodisasiga bag'ishlangan bo'lib, shoirlar asarlarida qo'llanilishdagi so'z ma'nolarining ta'sirchalikdagi o'ziga xos xususyatlariga bag'ishlangan ayrim tafsilotlarimiz havola etiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье одна из языковых единиц нашего языка посвящена событию употребления фразеологизмов в художественном языке. В произведениях поэзии приводятся некоторые подробности, касающиеся особенностей значения слова в употреблении.

SUMMARY. In article, one of the linguistic units of our language is devoted to the event of the use of phraseological units in an artistic language. In the works there are given concerning the peculiarities of the meaning of the word in use.

UDK. 911:321.01(-20)

«POYTEXT» SO'ZINING LUG'AVIY MA'NOSI VA TARIXIY-GEOGRAFIK, LINGVISTIK TALQINI

X.M.Bayqabilov – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: poytaxt, maxsus federal okrug, shahar, shahar aholi punktlari, ma'muriy markaz, shahar-davlat, saroy, o'rda.

Ключевые слова: столица, особый федеральный округ, город, городские поселения, административный центр, город-государство, дворец, орда.

Key words: capital, special federal district, city, urban settlements, administrative center, city-state, palace, orda.

Kirish. Poytaxt – davlatning bosh shahri, mamlakatning ma'muriy-siyosiy markazi. Poytaxt odatda, markaziy (umummilliy) hukumat, parlament va sud muassasalari qarorgohi hisoblanadi. Odatda, poytaxt alohida boshqaruv tartibi bo'lgan mustaqil ma'muriy birlikka ajratiladi. Ko'pchilik federativ davlatlarda poytaxt federatsiyaning biron-bir subyekti hisoblanmaydigan maxsus federal okrug hududida joylashgan bo'ladi. Ko'pchilik mamlakatlarda poytaxt qayerda bo'lishi konstitutsiya matnida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasida "*O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri*" deyilgan [1:5]. Shaharlarni ko'zgu desak, mubolag'a hisoblanmaydi. Chunki, biror jamiyatning rivojlanishiga yoki bugungi kun taraqqiyotiga baho beradigan bo'lsak, uning shaharlariga, xususan, poytaxt shaharlariga qarab xulosa chiqaramiz.

Ishning maqsadi va vazifalari. Poytaxt shaharlar qanday paydo bo'lgan? Avvalo, "shahar" degan so'zning o'zi qanaqa ma'noni anglatadi? Sayyoramizning turli mamlakatlarida va turli davrlarda shaharlar haqidagi tushunchalar ko'p marta o'zgardi. Shuning uchun ham shaharlarni tasavvur qilish tushunchasi xilma-xildir. "*Shahar*" tushunchasi bilan aholi punktlari hududidagi aniq chegaralarning alohida shakllari vujudga kelgan. Ana shunday aholi punktlarining tashqi ko'rinishining birinchi belgisi *shahar devori* (*qo'rg'oni*) bo'lib, u mudofaa maqsadi uchun xizmat qilish bilan birga shahar yadrosining asosiy chegarasi hisoblangan. Masalan, qadimda eng mashhur bo'lgan, aholisi asosan dehqonlarni tashkil etgan

shaharlarni hozirgi davr o'lchovi bilan qaraganimizda *shahar aholi punktlari* maqomiga qo'shmagan bo'lar edik.

Asosiy qism. Shunga qaramay shahar tushunchasi bilan bog'liq tipik xususiyatlarni ajratish mumkin. Mashhur olim V.V.Davidovning ta'kidlashicha, tushunchada barcha bilimlarning genetik tabiati namoyon bo'ladi.

Yevropa xalqlarida jumladan, nemislar uchun *shaharni* belgilaydigan so'z shtadt (*stadt*) bo'lsa, ingliz xalqlarida *tow cite* atamasi *shaharni* anglatadi. Fransuzlarda ham *cite* so'zining o'zi *shaharni* ifodalaydi. Shvedcha *Staden* so'zi ma'lum klass shaharlarni ifoda etsa, Norvegiyada bu so'z *shahar* degan ma'noni bildiradi. Rus tilida "*shahar*" so'zi tarixan o'ralgan, to'silgan – dushman, yovlar hamlasidan saqlanish maqsadi bilan bog'liq bo'lgan aholi punktni ifodalaydi. Rossiyada XVIII asr boshlarida atrofi o'ralgan joylar ("*qo'rg'onlar*") shahar hisoblangan. Shaharlar mudofaasi tobora takomillashib bordi, ularning atroflarida mustahkam qal'a va qo'rg'onlar qad rostladi. Shu munosabat bilan "*shahar*" – "*zopod*", ya'ni cherkov-slayyan tilida "*zpadь*" atamasi yuzaga keldi. So'zma-so'z tarjima qilinganda ushbu atama – chegaralangan, to'silgan, himoyalangan degan ma'noni anglatadi. Polyakchada "*zpod*" – qal'a degan ma'noni bildiradi [3:12].

Sh.Rahmatullayev ta'kidlashicha, "*poytaxt*" so'zi lingvistik nuqtayi nazardan ot hisoblanib, tojik tilida *poy* otini "*ost*" ma'nosi bilan "*hukmdor qabul marosimida o'tirishi uchun saroy to'riga o'rnatilgan, maxsus bezatib ishlangan hashamatli o'rindi*" ma'nosini anglatadigan *taxt* otidan tuzilgan bo'lib, "*davlatning bosh shahri*"

ma'nosini anglatadi. Bu ot asli "pay-e taxt" shakliga ega bo'lib, izofa birikmasiga teng bo'lgan [4:194].

Davlat poytaxti – oliy iroda subyekti ifodalaydigan siyosiy markaz poytaxt-shahar instituti shaklidagi davlat ramzi. Toponimistlarning ishtirokisiz tuzilgan xaritalarda poytaxt shaharlarini berishda bir xillikka yo'l qo'yilmoqda. Chunonchi, V.P.Zaychikovning ko'rsatishicha, Koreya Xalq Demokratik Respublikasining (Shimoliy Koreya nazarda tutilmoqda) poytaxti Pxienyan besh xil variantda ko'rsatilgan: Pxion-yan, Pen-yang, Pxienyan, Pxiyang-eng.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "shahar" tushunchasi barcha el va yurtlarda, mamlakat va muzofotlarda aynan bir xil talqin qilinmaydi, ular bunday maqomda turli davlatlarda turlicha belgilanadi. "Shahar" forscha so'z bo'lib, "qal'a" (rus tilida "город" – огородить, ya'ni "o'rab olmoq") ma'nosini anglatadi. Qadimda odatda shaharlarning ichki – markaziy qismi mudofaa devorlari bilan o'ralgan, bu yerda saroy, hukmdorlar va ular oilalarining qo'rg'onlari, muhim ma'muriy-diniy binolar, bosh maydon (registon), ba'zilarida oddiy aholi xonadonlari ham bo'lgan va u shahriston deb atalgan. Darvozalar orqali ularga kirib chiqilgan. Uning atroflarida "rabot" deb ataluvchi devorlar bilan o'ralgan boshqa tashqi shahar

qismlari ham bo'lib, bu yerdan bog'lar, keyinchalik oddiy aholining uy-joylari o'rin olgan. Shahar – tarixan tarkib topgan aholi manzilgohidir. Shahar tushunchasi nisbiy bo'lib, qaysi aholi manzilgohini shahar deb yuritish lozimligi borasida olimlar tomonidan hanuzgacha bir fikrga kelinmagan.

Ommaviy axborot vositalari va o'quv adabiyotlarida "poytaxt" atamasi bilan bir qatorda «столица», «capital» so'zlari tarjimaviy so'zlar sifatida ishlatilmoqda. Umuman olganda, biror atamaning mohiyatini anglamoq uchun uni ifodalovchi so'zning ma'no-mazmunini ifodalagan tushunchani anglab olmoq maqsadga muvofiq. Shuning uchun, birinchi navbatda "poytaxt" va «столица» atamalarini ta'riflash, ya'ni so'z ma'nosini aniqlash kerak bo'ladi. Lekin, mazkur atamalar turli adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Masalan, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «Poytaxt – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma» deb aytilgan [6:111]. Shuningdek, "poytaxt" atamasi bilan bir vaqtda iste'molda bo'lgan, sinonim xarakterdagi so'zlarga jadval ko'rinishda izoh berishni lozim topdik (1-jadval):

1-jadval. «Poytaxt» atamalarining sinonim so'zlari

T/r	Sinonim so'zlar	Qaysi tildan olingan	Ma'nosi
1	Poytaxt	Forscha	Poytaxt so'zi forscha – taxtning quyi, etak qismi, asosi. Davlatning bosh shahri, mamlakatning ma'muriy-siyosiy va madaniy markazi [2:288]
2	Saroy	Tojikcha	"karvon, savdogarlar to'xtab, dam oladigan keng hovli" ma'nosini anglatib, keyinchalik "qasr" ma'nosini anglatib boshlagan [4:208].
3	O'rda	Turkiy tildan	Turkiy tillarda o'rda, mo'g'ul xalqlarida o'rdu tarzida ishlatilib, "xon qarorgohi" ma'nosida qo'llanilgan. XIII asrdan e'tiboran, o'rda shu ma'noda rus tilida qo'llanila boshlagan [2:512]
4	Xonbaliq	Turkiycha	Baliq (balig') so'zi qadimgi turkiychada "shahar" degan so'z. Xonbaliq so'zi "Xon shahri" ma'nosida qo'llanilgan [10:598]
5	Shahrixon	Tojikcha	"Xon shahri" ma'nosida qo'llanilib, tojikcha "Shahrixon" deb transformatsiyaga uchrab atalgan [8:454].
6	Poytaxt	Forscha	"hukmdor qabul marosimida o'tirish uchun saroy to'riga o'rnatilgan, maxsus bezatib ishlangan hashamatli o'rindiqlik" ma'nosini anglatadigan taxt otidan tuzilgan bo'lib, "davlatning bosh shahri" ma'nosini anglatadi [4:194].
7	Seul	Koreyscha	Koreys tilidagi Soul (rus tilida Seul) so'zining ma'nosi "poytaxt" degan ma'noni anglatadi [10:329].
8	Stolitsa	Ruscha	Stol so'zi asosida vujudga kelib, qadimgi rus tilida – kursi, o'rindiqlik, taxt ma'nosida qo'llanilgan [10:572].
9	Bashkent (Boshkent)	Turkcha	"Poytaxt" so'zining turkcha talaffuzi [14:291]

*Izoh: jadval manbalar asosida muallif X.M.Bayqabilov tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, geografiya va siyosatshunoslik fanlarida qo'llaniladigan «Shahar – davlat» tushunchasini fanga birinchi bo'lib fransuz olimi Iv Lakost taklif qilgan. Uning fikricha, «shahar - davlat» tipida aholisining aksariyati bir shaharga mansub bo'lgan davlatlar tushuniladi. Lekin, dunyoda shunday shahar-davlatlar borki, ularning nomi yashab turgan millat bilan bog'liq emas [15:8].

Jahon mamlakatlarini poytaxtlarini geografik tasniflashda ularning turli ko'rsatkichlari (maydoni, aholisi, xo'jaligi, ma'muriy bo'linishi, tabiiy resurslari, joylashuvi va h.k.) bo'yicha guruh yoki toifalarga ajratilishi, tizimlashtirilishi an'anaviy tus olgan. Lekin, ushbu ko'rsatkichlar poytaxt shaharlarning tabiiy geografik xususiyati va zamonaviy talablarini to'liq ochib javob bermaydi. Shuning uchun ham mazkur holatda jahon mamlakatlarini maqomiga ko'ra tasniflanishi va toifalarga ajratilishi kerak.

Jahon mamlakatlarining poytaxt shaharlar maqomini tasniflanishida xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq tan olinmagan mamlakatlar ma'muriy markazlarini alohida tasniflash obyekti sifatida qarash mumkin. Masalan:

✓ alohida ma'muriy-huquqiy maqomda, lekin muayyan davlatlar tarkibidagi Tayvan, Gonkong, Aland orollari, Aomin kabi mamlakatlar;

✓ BMTga a'zo ayrim davlatlar tomonidan tan olingan Abxaziya, Shimoliy Osetiya, Kosovo, Shimoliy Kipr, Sahroi Kabir kabi mamlakatlar;

✓ maqomi noaniqlik yoki xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinmagan Donetsk, Lugansk, Pridnestrov (Dnestrobo'yi), Tog'li Qorabog' kabi mamlakatlar.

Ma'lumki, «dunyoda nechta poytaxt bor?» degan o'rinli savolga aniq bir javobni aytish qiyin. Buni mamlakatimizda keyingi o'n yillikda nashr etilgan jahon mamlakatlariga oid asarlardagi ma'lumotlar asosida quyidagi jadvaldan bilib olish mumkin. (2-jadval)

2-jadval. O'zbekistonda nashr etilgan jahon mamlakatlariga doir ba'zi adabiyotlar

№	Jahon mamlakatlariga oid adabiyotlar	Mamlakat -lar soni
1	Горкин А. Дунё мамлакатлари. Энциклопедия. –Т.: «Давр нашриёти», 2013. 296-б.	196
2	Мамадалиев Р. Дунё мамлакатлари. –Т.: «Muharrir», 2012. 500-б.	219

3	Оммабоп география мазмун-моҳият, тушунча ва маълумотлар А.Н.Ҳожиматов ва бошқ. –Т.: «Zuhra Baraka biznes», 2017. 132-б.	209
4	Ражабов Қ, Қандов Б. Жаҳон мамлакатлари: илмий-оммабоп нашр. –Т.: «Янги нашр», 2015. 232-б.	249
5	Раҳматов Л. Дунё мамлакатлари: Австралиядан Ҳиндистонгача. – Т.: «Yangi kitob», 2019. 848-б.	238
6	Этнология: ўқув қўлланма/масъул муҳаррир А.Аширов. –Т.: «Янги нашр», 2014. 544-б.	224
7	Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 11-жилд. Қизилкумит - Ҳўрмуз. –Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» ДИН, 2005. 608-б. 3-илова. 528-б.	196
8	Ҳазраткулов А. Жаҳон мамлакатлари: қисқа маълумотнома. –Т.: «Шарқ», 2006. 384-б.	222

*Izoh: jadval manbalar asosida muallif X.M.Bayqabilov tomonidan tuzilgan.

Xulosa. Xulosalab aytishimiz mumkin-ki, mamlakatlarning mustaqillika erishishi va muayyan davlatlarning bo‘linib, alohida davlat maqomiga ega bo‘lishi suveren davlatlar sonining ortishiga, yoki aksincha, orollarda joylashgan ba’zi mamlakatlarning suv ostida qolishi (tabiiy ofatlar sababli) hamda mamlakatlarning o‘zaro birlashuvi (siyosiy sabablarga ko‘ra) tufayli ular sonining kamayishiga olib keladi. Demak, mamlakatlar soni suveren davlatlar sonidan hamisha ko‘p va dinamik (o‘zgaruvchan) xususiyatga egaligi bilan izohlanadi. Bu o‘zgarish, albatta, poytaxt shaharlarni ham chetlab o‘tmaydi, albatta.

Poytaxt shaharlarning nomshunoslik bilan o‘zaro ta’sir masalalari toponimikada keng o‘rganiladi. Shuning uchun ham davlat va mamlakatlar hamda ularning poytaxtlari nomlanishini fanda, jumladan, jahon tarixi va geografiyada alohida bir toponimik kategoriya sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Chunki ularning nomlanishi muayyan dunyoqarashni aks ettirishi mumkin. Bu esa jahon tarixi bilan geografiya fanida jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashgan tadqiqotlarni yaratishga imkoniyat beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Т.: «O‘zbekiston» NMIU, 2014.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Тартибли. –Т.: “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
3. Arzikulova D. Zamonaviy shaharlar. –Т.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019, 80-б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). –Т.: «Университет», 2009. 282-б.
5. Қаримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. –Т.: “Фан”, 1982, 96-б.
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 7-жилд. Парчин - Солиқ. –Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» ДИН, 2004. 704-б.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. (арабча сўзлар) - Т.: «Университет», 2000.
8. Миллер Б.В. Персидско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. –М.: 1953.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. (туркий сўзлар) – Т.: «Университет», 2000. 282-б.
10. Все столицы мира /Авторы-сост. О.В.Зыкина, Л.А.Бурлуцкая, Г.А.Гальперина, Н.В.Иванова. –М.: “Вече”, 2004. –С. 592. (илл 16).
11. Горкин А. Дунё мамлакатлари. Энциклопедия. –Т.: «Давр нашриёти», 2013.
12. Мамадалиев Р. Дунё мамлакатлари. –Т.: «Muharrir», 2012, 500-б.
13. Оммабоп география мазмун-моҳият, тушунча ва маълумотлар А.Н.Ҳожиматов ва бошқ. –Т.: «Zuhra Baraka biznes», 2017, 132-б.
14. Туркча-ўзбекча ва ўзбекча-туркча луғат. – Т.: “Ўзбекистон”, 1993. 415-б.
15. Нигматов А.Н., Байқабиллов Х.М. Жаҳон мамлакатлари номларининг географик ва топонимик асослари. Монография. - Қарши: “Насаф” НМИУ, 2021.

РЕЗЮМЕ. Maqolada “poytaxt” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi va tarixiy-geografik, lingvistik talqini yoritilgan. Maqolada “shahar” so‘zining turli xorijiy tillardagi lingvistik tahlili va “poytaxt” so‘zining sinonimlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье описывается словарное значение и историко-географическая, лингвистическая трактовка слова «столица». В статье представлена информация о лингвистическом анализе слова «город» в разных иностранных языках и синонимов слова «столица».

SUMMARY. The article describes the dictionary meaning and the historical-geographical, linguistic interpretation of the word "capital". The article provides information on the linguistic analysis of the word "city" in different foreign languages and synonyms for the word "capital".

ДИАХРОН ӨДИСТЕ ИЗЕРТЛЕНГЕН ИНГЛИС ТИЛИНДЕГИ ӨЗЛЕСКЕН СӨЗЛЕРДИҢ АНАЛИЗИ

А.Ж.Бердиханова – еркин излениўши

Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети академиялық лицей

Таянч сўзлар: диахрон ёндашув, ўзлашган сўзлар, грамматик бирликлар, лисоний бирликлар, луғат қатлами.

Ключевые слова: диахронический подход, заимствованные слова, грамматические единицы, лексические единицы, словарный слой.

Key words: diachronic approach, borrowing words, grammatical units, lexical units, vocabulary.

Инглис тилиниң лексикалық қатламының дерлик 70% өзлескен сөзлерди курайды, сондай болыўына карамастан инглис тили халықаралық бизнес тили сыпатында кеңнен қолланылады. Яғный, өзлескен сөзлердиң көпчилиги инглис тилиниң жоғалып кетиўине емес, ал раўажланыўына себе болған сыяқлы көринеди. Бул усынылып атырған мақала эмпирикалық форматта жазылған болып, тийкарғы мақсети өзлескен сөзлердиң өзгешеликлерин анализ қылыўдан ибарат.

Көплеген лексемалар инглис тили тарихында мударми әмелде болған - олар тек ғана герман шабыўылшылары менен ғана келип қалған хәм қолланылмай қалған бирликлер қатарында болады. Англо-саксон тилиниң лексикалық бирликлери ҳазир күнде хәм инглис тили-

ниң күнделикли сөйлеў тилиниң дерлик үлкен көлемин курайды, яғный олардың қатарына грамматик бирликлер (in, on, be, that), лексик бирликлер (father, love, name) ямаса аффиксларди (mis-, un-, -ness, -less) кири-тиўге болады.

Англо-саксон тилинен кирип келген сөзлердиң көлемин жәми заманағөй инглис тилиниң лексикалық қатламы көлеминде салыстырғанда киши бөлекті курайтуғынлығы анықланған болсада, олар тилде ең көп қолланылатуғын сөзлердиң қатарынан есапланады. Инглис тили Америка вариантының миллион сөзли Браун университети корпусында анализ қылынғанда (438-бет) ең көп ислетилетуғын 100 ден аслам сөзлер таңлап алынды, солай етип бул сөзлердиң келип